



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 2 ISS: 6 (2025)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TOSHKENT DAVLAT  
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>SUG'URTA XIZMATLARIGA BO'LGAN ISTE'MOL TALABINI OSHIRISHNING INNOVATSION YO'LLARI</b> <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	<b>O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORINING IQTISODIY GLOBALLASHUV JARAYONLARIGA RAQAMLASHTIRISHNING TA'SIR YO'NALISHLARI</b> <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	9
3.	<b>QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI</b> <i>PhD. dosent Kalenov K.T.</i>	14
4.	<b>MARKAZIY OSIYODA TAKAFULNING VAKALAH MODELINI TADBIQ QILSIH IMKONIYATI</b> <i>Fayzullayev Diyorbek Zafar o'g'li</i>	17
5.	<b>INOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA RASSIYA FEDERATSIYASI BANK SUG'URTASINING XOZIRGI XOLATINING TAXLILI</b> <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	20
6.	<b>O'ZBEKISTONDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI</b> <i>Baratova Dinora Alisherovna</i>	23
7.	<b>O'ZBEKISTONDA KARBON BOZORI VA KARBON SUG'URTASINI JORIY ETISH IMKONIYATLARI</b> <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	25
8.	<b>УПРАВЛЕНИЕ ДЕНЕЖНЫМИ ПОТОКАМИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ОПТИМИЗАЦИИ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Роишева Диёра Равшановна</i>	28
9.	<b>ЦИФРОВОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФИНТЕХ КАК ДРАЙВЕРЫ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННЫХ СДЕЛОК В РЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ</b> <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Рахимбоева Сугдиёна Рахимбоевна</i>	33
10.	<b>TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI CHAKANA XIZMATLARI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	37
11.	<b>TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY QILISHNING AHAMIYATI</b> <i>Xaitov Shaxzod Sharipboyevich</i>	42
12.	<b>TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI</b> <i>Mamaraimova Rushana Rashidovna</i>	46
13.	<b>O'ZBEKISTONDA BANK SOHASIDAGI ISLOHOTLAR: HOZIRGI MUAMMOLAR VA YUZAGA KELAYOTGAN IMKONIYATLAR</b> <i>dotsent, Sung Tae Kyun</i>	50
14.	<b>TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI</b> <i>Yuldashev Fozil Turapovich</i>	57
15.	<b>DAVLAT IQTISODIY SIYOSATINING INVESTISION MUHITGA TA'SIRI</b> <i>Imomov Xamdilla Xamdamovich</i>	61
16.	<b>O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA BILVOSITA SOLIQQA TORTISH TAHLILI</b> <i>Shirinov Sabir Erkinovich, Mirasimov Ershod Sunatullayevich, Kabirov Abdulla Maxmutovich</i>	63

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU“Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU“Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU“Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU“Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU“Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI

PhD. dosent Kalenov K.T.

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi  
kalenovkuzbergen6@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligini tashkil etishning zamonaviy sharoitida ushbu sohani rivojlantirish va moliyalashtirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. Ushbu sohaga xos risklarni sug'urta vositasida kafolatlash orqali sohaning barqarorligini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar, xulosalar shakllantirilgan. Qoraqalpog'iston agrar sohasida sug'urta tizimining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ob'ektiv muammo va qiynchiliklar tahlil qilingan. Agrar sektordagi sug'urtaning eng dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega yo'nalishlari alohida ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** sug'urta, sug'urta kompaniyalari, sug'urta polislar, ommaviy axborot vositalari, agrosanoat majmuasi, qishloq xo'jaligi, xavf-xatarlarni sug'urtalash, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, fuqarolik qonunchiligi.

**Abstract:** This article examines and analyzes the current issues of development and financing of this area in the modern conditions of the Organization of Agriculture of Karakalpakstan. Proposals and recommendations, conclusions are formulated to ensure the stability of the industry by guaranteeing the risks inherent in this area through insurance. In the agrarian sector of our country, objective problems and difficulties are analyzed that prevent the development of the insurance system. The most relevant and vital areas of insurance in the agrarian sector are considered separately.

**Keywords:** Insurance, insurance companies, insurance policies, mass media, agro-industrial complex, agriculture, risk insurance, policyholders, insurers, civil law.

**Абстрактный:** В данной статье рассматриваются и анализируются актуальные вопросы развития и финансирования сельского хозяйства Республики Каракалпакстан в современных условиях. Сформулированы предложения и рекомендации, выводы по обеспечению стабильности отрасли путем гарантирования рисков, присущих данной сфере, посредством страхования. Анализируются объективные проблемы и трудности, препятствующие развитию системы агрострахования в аграрном секторе Каракалпакстана. Отдельно рассматриваются наиболее актуальные и жизненно важные направления страхования в аграрном секторе.

**Ключевые слова:** страхование, страховые компании, страховые полисы, масс медиа, аграрно-промышленный комплекс, сельское хозяйство, страхование рисков, страхователи, страховщиков, гражданское законодательство.

### Kirish (Introduction/Введение).

Qishloq xo'jaligini sug'urtalash agrar ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim vositalaridan biri bo'lib, undan nafaqat agrar sektor subyektlarining iqtisodiy holati, balki qishloq aholisining ijtimoiy ahvoli ham ko'p jihatdan bog'liqdir. Shu bois qishloq xo'jaligi risklarini, ayniqsa qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashni tashkil etish masalalari, optimal shartlar va modellarni topish, shuningdek agrosug'urtaning butun tizimini hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash tizimini optimallashtirish muhim ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi tarixan O'zbekiston milliy iqtisodiyotining yuqori xavf darajasiga ega bo'lgan quyi tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki qishloq xo'jaligi korxonalarining ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyati sharoitlari va natijalari tasodifiy, eng avvalo ob-havo omillariga bevosita bog'liqdir.

Shu munosabat bilan, agrar ishlab chiqarishning barqaror rivojlanish elementi sifatida agrosug'urta tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri iqlim o'zgarishlariga zaif bo'lgan tarmoqlar va hududlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek iqlimga moslashgan agroteknologiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirishdan iboratdir[1].

**Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).** Tadqiqotni amalga oshirishdan maqsad O'zbekistonda qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini va bu boradagi jahonning eng ilg'or amaliyotlarini tahlil qilish, qishloq xo'jaligida sug'urta tizimini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish hamda qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashning samarali mexanizmini joriy etishga ko'maklashishdan iborat.

Tadqiqot obyekti bo'lib Qoraqalpog'iston Respublikasi (Qorao'zak, Kegeyli va Qanliko'l tumanlari), xususan, qishloq xo'jaligi ekinlarini yoki qishloq xo'jaligi faoliyatini sug'urtalagan fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi ekinlari yoki qishloq xo'jaligi faoliyatini sug'urtalash bo'yicha sug'urta kompaniyalari xizmatlaridan foydalanmayotgan fermer xo'jaliklari, shuningdek qishloq xo'jaligi sohasida sug'urta faoliyati bilan shug'ullanayotgan sug'urta kompaniyalari hisoblanadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ijtimoiy anketa so'rovi metodologiyasi qo'llanildi. Anketa so'rovi va ijtimoiy tadqiqot geografiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasining Qorao'zak, Kegeyli va Qanliko'l tumanlari fermer xo'jaliklari hamda «O'zagrosug'urta» AJ va «Semurg Insurance» sug'urta kompaniyalari 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan mahalliy aholi (qishloq yig'inlari (FQY) va xo'jalik yurituvchi subyektlar mutaxassislari va rahbarlari, tuman darajasidagi hokimiyat organlari vakillari) tanlab olingan.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).** So'nggi yillarda qishloq xo'jaligini sug'urtalash sohasi iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida ko'plab tadqiqotlarda yoritilgan. Ilmiy adabiyotlarda sug'urtaning qishloq xo'jaligidagi roli asosan tavakkalchiliklarni kamaytirish, investisiya jozibadorligini oshirish va fermer xo'jaliklarini barqaror daromad bilan ta'minlash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

AQShda sug'urtalash bo'yicha asosiy davlat dasturlariga Hosilni ko'p riskli sug'urtalash dasturi hamda Katastrofik risklardan himoya qilish dasturi kiradi. Hosilni ko'p riskli sug'urtalash dasturi qurg'oqchilik, ortiqcha namlik, suv toshqinlari, kuchli shamollar, do'l va boshqa tabiiy ofatlar kabi ko'plab tabiiy xususiyatga ega risklardan himoyani ta'minlaydi[2].

Bugungi kunda Belarus Respublikasida qishloq xo'jaligini sug'urtalash yetarli darajada rivojlanmagan bo'lib, asosan qishloq xo'jaligi ekinlari hosili, chorva mollari va parrandalarni majburiy sug'urtalash shaklida amalga oshirilmoqda. Davlatning ishtiroki majburiy sug'urtada hosil, chorva mollari va parrandalarni sug'urtalash bo'yicha sug'urta badallarini to'lash xarajatlarining bir qismini qoplashdan iborat bo'lib, bu byudjet mablag'lari hisobidan sug'urta badalining 95 foizi miqdorida amalga oshiriladi. Qolgan 5 foiz esa amaldagi qonunchilikka muvofiq qishloq xo'jaligi tashkilotlari — sug'urtalanuvchilar tomonidan to'lanadi [3].

O'zbekiston tadqiqotchilari orasida M. Alimov o'zining "Qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari" nomli ishida agrar sug'urtaning milliy modelini yaratish, majburiy sug'urta elementlarini joriy etish va davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish zarurligini ta'kidlaydi [4]. Shuningdek, N. Abdurashidov "O'zbekistonda qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari" maqolasida fermerlar o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish va huquqiy baza mustahkamlash zarurligini qayd etadi [5].

Xorijiy tadqiqotchilar ishlarida esa agrar sug'urtaga nisbatan tizimli va makroiqtisodiy yondashuv ustun. Masalan, Hazell va Varangis "Agricultural insurance in developing countries: The role of governments and markets" nomli ishida rivojlanayotgan mamlakatlarda davlat tomonidan subsidiyalangan sug'urta modellari ijtimoiy samaradorlikni oshirishda muhim ekanini ko'rsatgan [6]. Mahul va Stutley tomonidan tayyorlangan Jahon banking "Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries" hisobotida indeks asosidagi sug'urta modellarining afzalliklari — tezkor to'lovlar va ma'muriy xarajatlarning kamayishi — tahlil etilgan [7].

Yevropa va AQSh tajribasini o'rgangan OECD hisobotida raqamli texnologiyalar, masalan sputnik ma'lumotlari va big data tahlili, agrar sug'urtada xatarlarni aniq baholash hamda avtomatlashtirilgan to'lov tizimini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirishi ta'kidlangan [8]. Turkiya va Xitoy tajribasini tahlil qilgan Gong va kul. esa davlat-xususiy hamkorligiga asoslangan modellar qishloq xo'jaligida sug'urta qamrovini oshirishda samarali natija berganini qayd etadi [9].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, jahon amaliyotida qishloq xo'jaligini sug'urtalashning samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq: institutsional muhitning barqarorligi, davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish, va fermerlar o'rtasida sug'urta savodxonligining yuqori bo'lishi. Milliy va xorijiy olimlar umumiy xulosa sifatida qishloq xo'jaligi sug'urtasi barqaror agrar siyosatning ajralmas qismi ekanini ta'kidlaydilar.

**Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты).** Hozirgi kunda O'zbekistonda agrosug'urta bozori faol rivojlanish bosqichida turibdi. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalash tizimini tahlil qilish, shuningdek ilg'or xorijiy tajribani o'rganish asosida, uni mahalliy sharoitlarga moslashtirish imkoniyatlarini aniqlagan holda, qishloq xo'jaligini yuritishning ham hududiy, ham tarmoq xususiyatlarini inobatga oluvchi ushbu tizimni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirda respublika bo'yab qishloq xo'jaligi tarmoqlarida global iqlim o'zgarishlariga moslashtirilgan intensiv texnologiyalar keng joriy etilmoqda, intensiv bog' plantatsiyalari va issiqxonalar tashkil qilinmoqda, ekinlar va daraxtlarning yangi navlari o'zlashtirilmoqda, infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda.

Mazkur yangiliklarning barchasi u yoki bu darajada qishloq xo'jaligi subyektlarining agrar faoliyatiga ta'sir etuvchi turli toifa va turdagi risklarga duch keladi. Boshqacha aytganda, qishloq xo'jaligi faoliyati doimo risk bilan bog'liqdir.

Shu sababli qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mol-mulkini hamda ular yetishtirayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sug'urtalash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki sug'urta turli xil tabiiy ofatlar natijasida yetkazilgan zararni qoplash kafolatini ta'minlaydi.

Bugungi kunda respublikada agrosug'urta xizmatlarini atigi ikki sug'urta kompaniyasi taklif etmoqda — «O'zagrosug'urta» AJ hamda «Semurg Insurance» kompaniyasi. Ta'kidlash joizki, Davlat-aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi «O'zagrosug'urta» O'zbekistonning eng yirik universal sug'urta kompaniyalaridan biri bo'lib, keng filial tarmog'i orqali samarali faoliyat yuritadi. Kompaniya tarkibiga 13 ta viloyat direksiyasi, 174 ta tuman va shahar bo'limlari hamda 20 ta sho'ba sug'urta agentliklari kiradi. «SEMURG INSURANCE» QK AJ esa O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta industriyasini rivojlantirish bo'yicha yangi hamkor hisoblanadi. U xalqaro darajadagi professional mutaxassislar va mahalliy sug'urta sohasi ekspertlaridan iborat universal sug'urta kompaniyasi bo'lib, respublikaning barcha hududlarida 25 dan ortiq filialga ega.

2016–2020 yillar davomida faqatgina «O'zagrosug'urta» AJda sug'urta hodisalari soni 50 foizga kamayib, 7,0 mingdan sal ko'proqni tashkil etdi. Shu davr mobaynida sug'urta to'lovlari hajmi 1,2 baravarga oshgan bo'lsa-da, kompaniya rentabelligi 2016 yildagi 20,9 foizdan 2020 yilda 51,3 foizgacha ko'tarildi.

Ushbu kompaniyalar tomonidan ko'rsatiladigan asosiy xizmatlar quyidagilardan iborat:

bog'lar hosildorligining pastligi natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy yo'qotishlarini sug'urtalash;

do'l yog'ishi oqibatida hosildorlik pasayishidan kelib chiqadigan moliyaviy yo'qotishlarni sug'urtalash;

tabiiy ofatlar natijasida daraxtlar, uzumzorlar va ularning ko'chatlari shikastlanishi yoki nobud bo'lishidan sug'urtalash;

noqulay tabiiy hodisalar, jumladan sovuqlar;

sug'orish manbalarida suvsizlik va suv tanqisligi;

kasalliklar va zararkunandalar;

yong'in va chaqmoq urishi;

uchinchi shaxslarning g'ayriqonuniy harakatlari va boshqa risklar;

hosildorlikning pastligi natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni sug'urtalash.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, agrar sektorda agrosug'urtaning yetarli darajada rivojlanmaganligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

optimal va moslashtirilgan sug'urta tizimining mavjud emasligi;

sug'urtalash jarayonida hududiy, mintaqaviy va tarmoq xususiyatlarining yetarli darajada hisobga olinmasligi;

agrosug'urta tizimlarining normativ-huquqiy va iqtisodiy jihatlari bo'yicha bilimlarning yetishmasligi;

agrosug'urtani amalga oshirish tizimi va mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimida raqamlashtirish va AT texnologiyalarining sust joriy etilgani;

sug'urtalashning innovatsion usullarining rivojlanmaganligi;

indeksli sug'urtalash tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

sug'urta subyektlarining sug'urta kompaniyalari majburiyatlarini bajarishiga bo'lgan ishonchning pastligi;

sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin to'lovlar kechikishi, ya'ni 6–8 oy o'tgach amalga oshirilishi;

ishonchli statistik ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'liq qiyinchiliklar;

barcha yetishtiriladigan ekinlar bo'yicha ishonchli statistik ma'lumotlar mavjud emasligi sababli, sug'urta dasturlarining faqat ayrim ekinlarni qamrab olishi;

barcha yetishtiriladigan ekinlar bo'yicha doimiy monitoring va statistik ma'lumotlar yig'ish tizimining yo'qligi;

indeksli sug'urtalashning muayyan xo'jalikda yuzaga keladigan mahalliy risklar yoki hodisalarni qoplamasligi va boshqalar.

Mazkur va boshqa muammolar yanada murakkab shaklda alohida iqlim sharoitlariga ega bo'lgan, uzoq va chekka hududlarda, jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasining tanlangan pilot tumanlarida namoyon bo'lmoqda.

Yuqorida keltirilganlarni e'tiborga olgan holda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish Dasturi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiy tahlil va me'yoriylashtirish markazi hamkorligida 2024 yilda yuridik va jismoniy shaxslarning alohida qatlamlari o'rtasida so'rovnomalarni amalga oshirilgan bo'lib, ushbu so'rovnomalarni natijalari hamda to'plangan ma'lumotlarni o'rgangan holda tahlillar amalga oshirildi.

Tadqiqotlar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishi natijasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga ta'sir etuvchi omillar kuchayib bormoqda, bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligining pasayishiga yoki kutilayotgan hosilni olish imkoniyatlarining kamayishiga olib kelmoqda.

Iqlim o'zgarishi oqibatida qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligiga turli zararkunandalar va hasharotlarning ta'siri ham ortib bormoqda. Ushbu jarayonlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining mavjud mol-mulkini va yetishtirilayotgan mahsulotini sug'urtalash, turli kutilmagan tabiiy ofatlar va favqulodda hodisalar natijasida ko'rilgan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash kafolatining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillarning yakuniy natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari bilan ta'minlashdagi tizimli muammolar, qishloq xo'jaligi yerlarining kuchli sho'rlanganligi hamda ekinlarni yetishtirish jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan risklarni inobatga olgan holda, agrar sektorda sug'urtani tashkil etish bilan bog'liq o'ziga xos muammolarni ilg'or xalqaro amaliyot va tajribani hisobga olgan holda tubdan hal etish maqsadga muvofiqdir.

Agrar sektor subyektlarini sug'urtaviy himoya qilish infratuzilmasi va mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalash sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi maxsus qonunni ishlab chiqish va qabul qilish, jumladan qishloq xo'jaligida sug'urtaning turlari va maqsadlarini, sug'urtalash obyektlari va subyektlarini, sug'urta tariflari, sug'urta mukofotlarini to'lash, sug'urta qoplamalarini amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni, qishloq xo'jaligi risklarini sug'urtalashda ishtirok etuvchi shaxslarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini, qayta sug'urtalash, soliqqa tortish, davlatning agrosug'urta bozoridagi ishtirok shakllari va vositalarini belgilash;

sug'urta kompaniyalari mutaxassislarining hamda majburiy ravishda sug'urtalangan subyektlarning qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini sug'urtalash sohasidagi iqtisodiy va huquqiy savodxonligini oshirish;

hududda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish jarayonida mavjud bo'lgan risklar va noqulay omillarni chuqur va har tomonlama o'rganish hamda tahlil qilish;

iqlim o'zgarishi sharoitlari va amalga oshirilayotgan agroteknologik tadbirlarni hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar sektorda sug'urtaning tashkiliy va metodologik jihatlarini takomillashtirish bo'yicha tizimli monitoring olib borish va aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

sug'urta shartnomalarida o'simlik kasalliklari va ularga qarshi kurashish usullari to'g'risida to'liq ma'lumotlarni kiritish;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini sug'urtalashda shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq va ravshan belgilash.

Ma'lumki, «O'zagsug'urta» AJ «O'zgidromet», «O'zbekkosmos» agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda faoliyat yuritib, qishloq xo'jaligining, jumladan strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning holati bo'yicha axborot almashuvini yo'lga qo'ygan. Istiqbolda agrosug'urta sohasidagi mutaxassislar (GIS asosidagi raqamli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar, agronomlar, veterinariya mutaxassislari va boshqalar) uchun qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini baholash, risklarni aniqlash va ekinlarga yetkazilgan zararni baholash maqsadida monitoring ishlarini tashkil etish bo'yicha doimiy o'quv kurslarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 17 iyundagi 505-sonli "Paxta xomashyosi va boshqoqli don ekinlari kelgusi hosilini sug'urtalash tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, «O'zagsug'urta» AJ uchun yillik 4 foiz stavkada imtiyozli

kreditlar ajratilishi nazarda tutilgan. Sug'urta qoplamasi, shuningdek sug'urta mukofotlari umumiy summasining 80 foizigacha bo'lgan qismi «O'zagsug'urta» AJ tomonidan qoplanadi, sug'urta qoplamasining qolgan qismi esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan byudjet subsidiyasi hisobidan to'lanadi. Biroq mazkur mexanizm hozirgi kunda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarini to'liq sug'urtalash imkonini bermayapti. Mutaxassislar fikriga ko'ra, qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilikni sug'urtalash jarayonida byudjet subsidiyasi ulushini 50 foizgacha oshirish zarur. Agar byudjet mablag'lari ishtiroki 50 foizga yetkazilsa, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini sug'urtalash barcha sug'urta kompaniyalari uchun jozibador bo'ladi.

Meva-sabzavotchilik klasterlari (kooperatsiyalari) va fermer xo'jaliklari uchun meva-sabzavot mahsulotlari hosili risklarini sug'urtalash xizmatlaridan foydalanganda to'langan sug'urta mukofotining 50 foizini, biroq sug'urta summasining 1 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda qoplab berishni nazarda tutish lozim. Bunda sug'urta summasi sug'urtalanayotgan hosil qiymatining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urtalovchilarga sug'urta badallarini foyda solig'ini to'lamagan holda qaytarish imkoniyatini yaratish maqsadida soliqqa tortish qoidalarini o'zgartirish ham muhim ahamiyatga ega.

#### Xulosa (Conclusion, Заключение).

Tadqiqot va tahlillarning yakuniy natijalariga ko'ra, **Qoraqalpog'iston Respublikasining** tabiiy-iqlim sharoitlari, suv resurslari bilan ta'minlashdagi tizimli muammolar, qishloq xo'jaligi yerlarining kuchli sho'rlanganligi, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida qishloq xo'jaligi ekinlari hosilini yetishtirish jarayonida yuzaga keladigan **kutilmagan xatarlarni** inobatga olgan holda, **xalqaro ilg'or amaliyot va tajribalarni hisobga olgan holda agrar sektorda sug'urtani tashkil etishdagi o'ziga xos muammolarni tubdan hal etish maqsadga muvofiq** ekanligi aniqlandi.

Agrosug'urta sektoriga to'g'ridan-to'g'ri davlat subsidiyalari mexanizmlarini joriy etish, ya'ni sabzavotlar, boshqoqli don ekinlari, moyli ekinlar, dukkakli ekinlar va boshqa zarur sug'urta mahsulotlari ro'yxati bo'yicha sug'urta mukofotlarini subsidiyalash, shuningdek, halokatli tabiiy hodisalar yuz berganda sug'urta kompaniyalariga zaraming bir qismini qoplash bo'yicha davlat kafolatlarini taqdim etish maqsadga muvofiqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030- yillarga mo'ljallangan strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son Farmoniga ilova.
2. R. Ismailova, Z. Baymagambetova, O. Misnik. **Qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'urtalashni subsidiyalash: xorijiy va mahalliy tajriba.** *Iqtisodiyot va statistika* jurnali, 1/2019, 33-bet. [www.stat.gov.kz](http://www.stat.gov.kz).
3. I.A. Kazakevich, L.V. Shabunya. Mexanizm straxovaniya v selskom xozyaystve Respubliki Belarus kak finansoviy instrument obespecheniya yego ustoychivogo razvitiya. Institut sistemnix issledovaniy v APK Natsionalnoy akademii nauk Belarusi, Minsk, Belarus. Vessi Nasiyanalnay akademii navuk Belarusi. Seriya agrarnix navuk. 2018. T. 56. №2. C. 151–163.
4. Alimov, M. (2020). Qishloq xo'jaligini sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'nalishlari. Toshkent: TMI nashriyoti.
5. Abdurashidov, N. (2019). O'zbekistonda qishloq xo'jaligida sug'urta xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalari. — "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №3.
6. Hazell, P. & Varangis, P. (2018). Agricultural insurance in developing countries: The role of governments and markets. World Bank Research Working Paper.
7. Mahul, O. & Stutley, C. J. (2010). Government Support to Agricultural Insurance: Challenges and Options for Developing Countries. Washington, DC: The World Bank.
8. OECD (2021). Agricultural Policy Monitoring and Evaluation 2021: Addressing the Challenges Facing Food Systems. OECD Publishing, Paris.
9. Gong, B., Xu, H., & Zhang, L. (2020). Public-private partnership models in agricultural insurance: Evidence from China and Turkey. *Journal of Agricultural Economics*, 71(4), 921–936.